

CHET EL ELEMENTI BILAN MURAKKABLAHGAN ALIMENTGA DOIR XORIJIY SUD QARORLARINI TAN OLISH VA IJRO ETISH

Toshmatov Sardorbek Baxriddin o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Gmail ID: toshmatosardorbek@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada chet el elementi bilan murakkablashgan aliment majburiyatlariga oid xorijiy sud qarorlarini tan olish va ijro etish masalalari xalqaro xususiy huquq nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Global migratsiya jarayonlarining ortib borishi bilan birga alimentga oid xalqaro nizolar soni ham ko'paymoqda. Tadqiqotda 2007-yilgi Gaaga Konvensiyasi, Yevropa Ittifoqining "Maintenance Regulation" reglamenti, AQSH va boshqa davlatlarning yondashuvlari qiyosiy tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, xususan Fuqarolik protsessual kodeksi va ijro to'g'risidagi qonunlar asosida mavjud muammolar ochib berilgan. Xalqaro konvensiyalarning qamrovi, yurisdiksiya tamoyillari, ijro usullari va qarorlarni rad etish asoslari asosida huquqiy muammolar ko'rsatilgan va ularga yechim sifatida normativ takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: chet el elementi, aliment majburiyati, xorijiy sud qarorlari, tan olish, ijro etish, xalqaro xususiy huquq.

RECOGNITION AND ENFORCEMENT OF FOREIGN COURT DECISIONS ON ALIMENTATION COMPLEX WITH A FOREIGN ELEMENT

Toshmatov Sardorbek Baxriddin o'gli

Master's student, Tashkent State Law University

Gmail ID: toshmatosardorbek@gmail.com

Annotation: This article analyzes the recognition and enforcement of foreign court judgments related to child and spousal maintenance obligations involving a foreign element, from the perspective of private international law. With the increase of global migration and cross-border family disputes, the issue of international enforcement of maintenance orders has become more pressing. The study comparatively examines the 2007 Hague Convention, the EU's Maintenance Regulation, and the approaches of the US and other jurisdictions. The national legislation of Uzbekistan, including the Civil Procedure Code and enforcement laws, is evaluated to identify current challenges. Key legal principles such as jurisdiction, procedural fairness, grounds for refusal, and mechanisms of enforcement are critically discussed. Finally, legal reform proposals are offered to enhance compliance and efficiency in cross-border maintenance enforcement.

Keywords: foreign element, maintenance obligation, foreign court judgments, recognition, enforcement, private international law.

Kirish

Globalizatsiya sharoitida fuqarolarning turli davlatlarda yashashi, ishlashi va oilaviy munosabatlarga kirishishi tobora ortib bormoqda. Bu holat xalqaro xususiy huquqning dolzarb muammolaridan biri hisoblangan xorijiy sud qarorlarini tan olish va ijro etish, ayniqsa aliment bilan bog'liq ishlar doirasida, o'z ahamiyatini oshiradi. Aliment majburiyatlari, odatda, bolalarning va sobiq turmush o'rtaqlarning moddiy ta'minotini kafolatlashga qaratilgan bo'lib, ularni vaqtida va samarali ijro etilishi inson huquqlari va ijtimoiy adolat mezonlari nuqtai nazaridan muhim hisoblanadi.¹ Er va xotinlar, ota-onalar va bolalar bir-biriga g'amxo'rlik qilish bo'yicha qonuniy majburiyatlarga egaligining bildiradi. Shunday ekan oilaviy munosabat ishtirokchilarining fuqaroligi va ularning qaysi irq yoki dinga mansubligi bu yerda ahamiyatli bo'lib qoladi. Shundan kelib chiqib ular o'rtasida majburiyatlarni to'laqonli bajarishda turli yurisdiksiyaviylik ham xalqaro xususiy huquq jihatdan tartibga solinadi.

Jumladan, turli yurisdiksiyalarning alimentga oid qarorlarni tan olishda yuritadigan yondashuvlari farqlanishi, shuningdek, xalqaro shartnomalar, masalan, 2007-yilgi Gaaga Konvensiyasi, bu borada muhim rol o'ynaydi. Shunga qaramay, amaliyotda bu qarorlarning ijrosini ta'minlashda bir qator huquqiy va institutsional to'siqlar mavjud. Ushbu maqola aynan shu masalaga e'tibor qaratib, xalqaro xususiy huquq doirasida alimentga oid xorijiy sud qarorlarini tan olish va ijro etishning huquqiy asoslari, mexanizmlari va muammolarini tahlil qiladi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda sifatli huquqiy tahlil usuli qo'llanildi. Asosiy e'tibor xalqaro shartnomalar, milliy qonunchiliklar, hamda xalqaro miqyosida tartiblarga qaratildi. Xususan, 2007-yilgi Gaaga Konvensiyasi, Evropa Ittifoqi ichki normativ-huquqiy hujjatlari (masalan, Brüssel Ia reglamenti), AQSh va Buyuk Britaniya kabi yurisdiksiyalar amaliyoti, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi, shuningdek ilmiy maqolalar va xalqaro huquqiy doktrinalar.

Ma'lumotlar kontent tahlili asosida qayta ishlanib, aliment qarorlarini tan olish va ijro etishning prinsipial asoslari, to'siqlari va yechimlari aniqlab olindi. Metod sifatida qiyosiy huquq tahlili ham qo'llanildi, bu esa turli tizimlar o'rtasidagi yondashuv farqlarini ko'rsatish imkonini berdi.

¹ Beaumont, P., & Holliday, J. (2016). Recent developments on the Hague Convention 2007 on the International Recovery of Child Support. *Journal of Private International Law*, 12(3), 475–500p

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMA

Chet el bilan murakkablashgan aliment bilan bog'liq munosabat tushunchasiga o'tishdan oldin, aliment tushunchasiga tarif berib o'tish ahamiyatli hisoblanadi. Xususan, **aliment** fuqarolarning o'zaro ijtimoiy va huquqiy majburiyatlaridan biri bo'lib, ko'pincha oilaviy huquq doirasida talqin etiladi. Odatda aliment to'lash majburiyati, turmush o'rtog'ining ajralishi, ota onaning farzandlariga bo'lgan qarzlari yoki voyaga yetmagan bolalarga bo'lgan ta'minot sifatida yuzaga keladi. Alimentning maqsadi, uning oluvchisi (odatda farzand yoki otaona, ajrashgan turmush o'rtog'i) ga moliyaviy holatini ta'minlash, hayotiy ehtiyojlarini qoplashga yordam berishdir.²O'z navbatida chet elementi bilan murakkablash o'z navbatida bu vaziyatda munosabt ishtirokchisi(lari) turli fuqarolikka mansubligi va shu paytgacha boshqa boshqa yurisdiksiyalarda yashovchi subyektlar hisoblanish hamda xalqaro xususiy huquq obyekti hisoblanishini bildiradi. Jumladan, **G.Yu. Fedoseeva** o'rinli ta'kidlaganidek, chet el elementining nikoh-oila munosabatlarida mavjudligi ularning nikoh-oila munosabatlari sifatidagi tavsifini o'zgartirmaydi, aksincha qo'llaniladigan huquqni tanlash muammosini o'rganish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bu esa, o'z navbatida, ularga xalqaro xususiy huquq obyekti sifatini beradi. Bundan tashqari, u o'z fikrini izohlab, aliment munosabatlari xalqaro xususiy huquq obyekti sifatida e'tirof etilish uchun **birinchidan**, aliment munosabatlari xalqaro xususiy huquqiy munosabatlar obyekti doirasiga kirishi; **ikkinchidan**, asosiy maqsad alimentga oid munosabatlarni xalqaro xususiy huquqiy tartibga solinishidir³ **D.I. Girfanovanning** fikricha chet el elemnti bilan murakkablashgan aliment munosabatlarida ishtirok etish uchun taraflar oilaviy huquqning subyekti bo'lishi hamda ushbu shaxslar oilaviy huquq va muomala layoqatiga ega bo'lishi zarur.⁴ **X. Abduraxmonova**⁵ chet el elementi bilan murakkablashgan aliment munosabatlari haqida fikr bildirib, chet el elementi bilan murakkablashgan aliment majburiyatlarining subyektlari bo'lgan ota-ona va bolalar bir-birlariga nisbatan huquq va majburiyatlarga ega bo'ladilar. Bunda voyaga yetmagan bolalarga hamda nikohsiz tug'ilgan bolalarga (otalik belgilangandan so'ng) aliment to'lash bo'yicha majburiyatlarda ota-ona tengdir deb ta'kidlaydi. Xalqaro xususiy huquqda ushbu jarayon, bir tomondan, davlat suvereniteti va ichki yurisdiksiya mustaqilligini hurmat qilishni, ikkinchi tomondan esa xalqaro adolat,

² Gavhar KHOLIKOVA, "Chet el elementi bilan murakkablashgan aliment munosabatlari tushunchasi va kollizion masalalari" <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss2/S-pp148-154>.

³ Федосеева Г.Ю. Брачно-семейные отношения как объект международного частного права Российской Федерации: автореф. дис. ... д-ра юрид. наук. М., 2007

⁴ Гирфанова Д.И. Субъекты алиментных обязательств в международном частном праве // Вестник экономики, права и социологии. 2013. – № 4

⁵ X.B.Abduraxmonova "Xalqaro xususiy huquqda ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarning tartibga solinishi" Yuridik fan doktori (Dsc) dissertatsiyasi, -Toshkent: 208 b

inson huquqlari va bolalarning manfaatlarini ta'minlashni talab etadi.⁶ Shu sababli bu jarayoni tartibga solish uchun ko'plab xalqaro xususiy huquqiy konvensiyalar va turli xil bitimlar mavjud. Xalqaro xususiy huquqda aliment majburiyatlarini tartibga solish moddiy va protsessual normalarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, Xorijiy sud qarorlari bilan bog'liq qarz yoki ta'minotga oid **amaliyotning** to'rtta shakli mavjud bo'lib, ular:

Shakl	Xususiyati	Amalda qanday ishlaydi
1-shakl	<i>To'liq tan olish va avtomatik ijro</i>	Xorijiy qaror mahalliy qaror sifatida darhol ijro qilinadi (masalan, Yevropa Ittifoqi ichida).
2-shakl	<i>Tan olish, lekin ehtiyotkor tekshirish bilan</i>	Mahalliy sud faqat g'araz niyat yoki protsessual buzilish mavjudligini tekshiradi.
3-shakl	<i>Xalqaro comity asosida tan olish</i>	Tan olish ixtiyoriy bo'ladi. Bunda xalqaro do'stlik va hurmat tamoyili asosida ijro qilinadi (masalan, AQSHda).
4-shakl	<i>Dalil sifatida tan olish</i>	Xorijiy qaror faqat yangi da'voda dalil sifatida ishlatiladi, avtomatik ijro mavjud emas.

Bu to'rtala shaklning aniq shartnoma konvensiyalardan farqli jihati shundaki, **ular majburiy ta'sirga ega** emas.⁷ Xususan, aliment majburiyatlarini tartibga solishning xalqaro xususiy-huquqiy modeliga normalarning ikkita bloki kiritiladi.⁸

Birinchisi, xalqaro va aliment majburiyatlarining asosiy jihatlarini tartibga soluvchi kollizion normalar, shuningdek, munosabatlarning ushbu sohasidagi mintaqaviy yoki ikki tomonlama huquqiy yordam shartnomalari darajasida mustahkamlangan normalar. **Ikkinchi blokka**, "xorijiy element" kiritilgan holda kollizion tartibga solishni belgilaydigan va shu sababli xalqaro xususiy huquq tarkibiga kiruvchi milliy qonunchilik normalaridir. Agar birinchi blokka kiruvchi xalqaro hujjatlarni belgilaydigan bo'lsak, ularning qatoriga, yuqorida ko'rsatib o'tilgan 1956-yilgi Konvensiyadan tashqari, "Bolalar foydasiga alimentlar bo'yicha sud qarorlarini tan olish va ijro etish to'g'risida"gi 1958-yilgi Gaaga konvensiyasini, "Farzandlikka olish to'g'risidagi qarorlarning yurisdiksiyasi, qo'llaniladigan huquq va tan olinishi to'g'risida"gi 1965-yilgi Gaaga konvensiyasini, "Aliment majburiyatlariga nisbatan qo'llaniladigan huquq to'g'risida"gi 1973-yilgi Gaaga konvensiyasini, "Ota-onalar mas'uliyati va bolalarni himoya qilish choralari bo'yicha yurisdiksiya, qo'llaniladigan

⁶ Silberman, L. (2008). The recognition and enforcement of foreign judgments in the United States. Recueil des cours, 326, 233–392.

⁷ Prasobsook Boondech, Recognition and Enforcement of Foreign Court Judgments on Maintenance and Alimony. <https://so01.tci-thaijo.org/index.php/tls/article/view/257896/171383>.

⁸ X.B.Abduraxmonova "Xalqaro xususiy huquqda ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarning tartibga solinishi" Yuridik fan doktori (Dsc) dissertatsiyasi, -Toshkent: 208 b.

huquq, tan olish, ijro etish va hamkorlik to'g'risida"gi 1996-yilgi Gaaga konvensiyasini, "Bolalar va oilaning boshqa a'zolariga nisbatan alimentlarni xalqaro undirish tizimi to'g'risida"gi 2007-yilgi Gaaga konvensiyasini va boshqalarni kiritish lozim. Yuqorida keltirilgan konvensiyalar xalqaro xususiy huquqda alimentlarni undirishni kompleks tartibga solishni ta'minlaydi.

Jumladan, 2007-yilgi Gaaga Konvensiyasi xorijiy aliment qarorlarini tan olish va ijro etish mexanizmlarini standartlashtirish va soddalashtirishga qaratilgan eng muhim xalqaro hujjatlardan biridir.⁹ Konvensiya 21 yoshga to'lmagan shaxsga nisbatan ota ona va bola munosabatlaridan kelib chiqadigan aliment majburiyati, turmush o'rtog'i (er yoki xotin)ni moddiy jihadan ta'minlash to'g'risidagi xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijroga qaratishga doir sohalarga nisbat qo'llaniladi. Bu esa ishtirokchi davlatlarning vakolatli organlari o'rtasida hamkorlik tizimini yaratish, aliment undirish haqidagi qarorlar doirasida ariza berish jarayonining qulayligi va soddaligini ta'minlash, bunday qarorlarni tan olish va ijro etish uchun shart-sharoitlar yaratish, shuningdek ularni tez va majburiy ijro qilish bo'yicha samarali uslublarni ishlab chiqish orqali amalga oshiriladi.¹⁰ Bu konvensiya ijro mexanizim bo'yich asosiy hujjat hisoblanib, konvensiyaning **4-moddasiga** asosan, har bir ishtirokchi davlat ushbu konvensiya bilan yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun markaziy organ belgilashi shart. Chunonchi, konvensiyaga muvofiq alimentga bo'g'liq sud qarorini ishtirokchi davlatlar orasida tan olish va ijro etish uchun bir nechta shartlarga javob berish kerak. Jumladan:

- *Javobgar (debitor) qaror chiqarilgan paytda da'vo ochilgan davlatda doimiy yashagan bo'lishi;*
- *Javobgar sud yurisdiksiyasini ochiqchasiga tan olishi yoki unga e'tiroz bildirmasdan da'voni ko'rib chiqishda qatnashgan bo'lishi;*
- *Kreditor (aliment oluvchi shaxs) da'vo ochilgan vaqtda o'sha davlatda doimiy yashagan bo'lishi;*
- *yoki aliment belgilanayotgan bola da'vo ochilgan vaqtda qaror chiqarilgan davlatda doimiy yashagan bo'lishi va javobgar ham u yerda bolaga moddiy yordam ko'rsatgan bo'lishi.*

Bundan tashqari, alimentga oid bo'lmagan da'volarda tomonlar sud **yurisdiksiyasini yozma ravishda kelishib olgan bo'lsa, yoki shaxsiy maqom (personal status) va ota-onalik huquqlari bo'yicha qaror chiqarilgan bo'lsa,**¹¹ tan

⁹ Convention of 23 November 2007 on the International Recovery of Child Support and Other Forms of Family Maintenance. <https://www.hcch.net/en/instruments/conventions/full-text/?cid=131>.

¹⁰ Кучиева Юлия Александровна, Признание и исполнение иностранных судебных решений по взысканию алиментов. <https://cyberleninka.ru/article/n/priznanie-i-ispolnenie-inostrannyh-sudebnyh-resheniy-po-vzyskaniyu-alimentov>.

¹¹ Convention of 23 November 2007 on the International Recovery of Child Support and Other Forms of Family Maintenance. <https://www.hcch.net/en/instruments/conventions/full-text/?cid=131>.

olish mumkin. Shu bilan birga, Konvensiya davlatlarga ayrim bandlarga (masalan, kreditorning yashash joyiga asoslangan yurisdiksiyaga) nisbatan istisnolar kiritish imkonini beradi. **Muhim jihati shundaki**, agar qaror bolaning alimentiga taalluqli bo'lsa va tan olinish faqat texnik sabablarga ko'ra rad etilayotgan bo'lsa, Konvensiya bolaning aliment olish huquqini alohida ta'minlashni talab qiladi. Shuningdek, qaror tan olinishi uchun u chiqarilgan davlatda hali ham huquqiy kuchga ega va ijro etilishi mumkin bo'lishi kerak.

Agarda, agar qarorning tan olinishi davlatning jamoat tartibiga (ordre public) yaqqol zid bo'lsa;

qaror protsessual firibgarlik (masalan, soxta ma'lumot taqdim etish) natijasida olingan bo'lsa;

o'sha ish bo'yicha ilgari boshqa davlatda yoki ayni davlatda ochilgan va davom etayotgan ish mavjud bo'lsa;

yoki ilgari chiqarilgan va hali ham amal qilayotgan boshqa qaror bilan ziddiyat yuzaga kelsa sud tomonidan qarorni tan olish va ijroga qaratish rad etiladi. Shuningdek, agar javobgar sud jarayonida ishtirok etmagan bo'lsa va unga da'vo yoki sud qarori haqida yetarlicha va tegishli xabarnoma berilmagan bo'lsa, yoki u qarorga nisbatan apellyatsiya qilish imkoniyatiga ega bo'lmagan bo'lsa, qaror tan olinmaydi. Xususan, bu borada tadqiqot olib borgan **Beaumont va Holliday**¹² o'z tadqiqotida konvensiyaning xalqaro oilaviy huquq doirasida eng muhim normativ vosita sifatidagi rolini e'tirof etadi. Ular ta'kidlaganidek, konvensiya orqali *aliment talab qiluvchilar, ayniqsa bolalar, transmilliy darajada o'z huquqlarini tez va samarali himoya qilish* imkoniyatiga ega bo'ladi. Ammo, **Gaudreault-DesBiens fikricha**¹³, Sud yurisdiksiyasining yetarlicha asoslanmaganligi, taraflarga adolatli sud jarayoni kafolatlarining taqdim etmasligi, qaror jamoat tartibiga zid bo'lishi va qarorning hali kuchga kirmasligi asosiy muammo bo'lib qolmoqda. **Bundan tashqari**, Bu konvensiyaga a'zo bo'lmagan davlatlar ijro ikki tomonlama shartnomalar, hamjihatlik yoki ichki qonunlarga bog'liq bo'lib, ko'pincha oldindan aytib bo'lmaydigan oqibatlarga va uzoq davom etadigan sud jarayonlariga olib keladi.¹⁴ Yagona standartlarning yo'qligi patchwork landshaftini yaratadi.

Bundan tashqari, Yevropa ittifoqi doirasida aliment munosabatlariga oid sud qarorlarini tan olish va ijroga qaratishda Council Regulation (EC) No 4/2009 ("Maintenance Regulation") bilan tartibga solinadi. Unga ko'ra, aliment majburiyatlari

¹² Beaumont, P., & Holliday, J. (2016). Recent developments on the Hague Convention 2007 on the International Recovery of Child Support. *Journal of Private International Law*, 12(3), 475–500.

¹³ Gaudreault-DesBiens, J.-F. (2019). The challenges of enforcing international maintenance obligations: Between harmonization and sovereignty. *Canadian Journal of Family Law*, 32(2), 229–261p.

¹⁴ Mondaq (2025). Enforcement of Foreign Judgments Comparative Guide – Turkey

<https://www.mondaq.com/turkey/litigation-mediation-arbitration/1352912/enforcement-of-foreign-judgments-comparative-guide>.

yuzasidan chiqarilgan qarorlar Evropa Ittifoqi davlatlari o'rtasida minimal protsessual to'siqlarsiz tan olinadi va ijro etiladi.¹⁵Shuningdek, Aliment qarorlarini tan olish va ijro etish masalasida reglament ikki asosiy ega bo'lib, agar qaror Gaaga 2007 Konvensiyasi qamrovidagi ishga oid bo'lsa, maxsus protsedura asosida amalga oshiriladi, aksi bo'lsa, oddiy protsedura qo'llaniladi.¹⁶Bu konvensiyaning ahamiyatli jihati shundaki, tan olish uchun alohida sud qaroriga ehtiyoj yo'q hisoblanib, Aliment qarori avtomatik tarzda tan olinadi va bevosita ijro uchun topshiriladi. Bundan tashqari, aliment qarorining tan olinishi yoki ijro etilishi rad qilinishi mumkin bo'lgan asoslar qat'iy cheklangan. Maintenance Regulation 24-moddasiga ko'ra, qarorni tan olish yoki ijro etish quyidagi hollarda rad qilinadi:

Agar qarorning tan olinishi aniq ravishda davlatning jamoat tartibiga ("ordre public") zid bo'lsa;

yoki agar javobgar taraf protsessual huquqlardan mahrum bo'lgan bo'lsa, ya'ni unga sud ishidan xabardor etilmagan yoki u o'zini himoya qilish imkoniyatiga ega bo'lmagan bo'lsa. Boshqa hollarda sud ishni rad eta olmaydi. Bu konvensiyaning ya'ni maintenance regulation 3-moddasiga ko'ra, alimentga oid da'volar uchun bir necha asosiy yurisdiksiya qoidalari belgilanadi. Da'vo quyidagi joyda ko'riladi:

aliment oluvchining **doimiy yashash joyi (habitual residence) bo'yicha** sudda;

aliment beruvchining **doimiy yashash joyi bo'yicha** sudda;

agar aliment masalasi boshqa bir asosiy da'vo bilan birgalikda, masalan, nikoh bekor qilish yoki ota-onalik masalasi bilan birgalikda ko'rilsa, **ana shu asosiy da'vo ko'rilayotgan** sudda. Bundan tashqari, taraflar o'zaro **aniq bitim orqali yurisdiksiyani** belgilab olishlari ham mumkin

Keyingi navbatda, Markaziy Osiyo davlatlar, shu jumladan, O'zbekiston oilaviy munosabatlarda sud qarorlarini tan olish va ijroga qaratish bo'yicha aniq konvensiyaga a'zo emas. Ammo, bu davlatlar o'rtasida fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam ko'rsatish bo'yicha ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnomalar mavjud bo'lib, bu turdagi munosabatlar tartibga ular orqali tartibga solinaadi. MDH davlatlar orasida "Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam" ko'rsatish bo'yicha Minsk konvensiyasining 51-moddasiga ko'ra, har qanday ahdlashuvchi tomon boshqa ishtirokchi davlat hududida qabul qilingan qarorlarni, shu jumladan oilaviy masalalarga doir qarorlarni tan olishi va ijrosini ta'minlashi shart.¹⁷ **Biroq**, konvensiyaga a'zo davlatlar qarorlarining xalqaro tan olinishi va ijro etilishiga

¹⁵ European Parliament and Council. (2009). Council Regulation (EC) No 4/2009 of 18 December 2008 on jurisdiction, applicable law, recognition and enforcement of decisions and cooperation in matters relating to maintenance obligations. Official Journal of the European Union. <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX%3A32009R0004>.

¹⁶ Beaumont, P., & Walker, L. (2017). *EU Maintenance Regulation: jurisdiction, applicable law, and recognition and enforcement*. Journal of Private International Law, 13(2), 365-395.

¹⁷ Минской конвенции "О правовой помощи и правовых отношениях по гражданским, семейным и уголовным делам" <https://lex.uz/docs/2741652>.

qaramay, bunday qarorlarni amalga oshirishning ishlab chiqilgan tartibi va metodologiyasining yo'qligi muammo bo'lib qolmoqda. Bundan tashqari, yuridik yordam bo'yicha ham ko'p tomonlama, ham ikki tomonlama shartnomalar nazarda tutilgan **Bundan tashqari**, sud yordami to'g'risidagi ham ko'p tomonlama, ham ikki tomonlama shartnomalar xorijiy sudlar tomonidan chiqarilgan qarorlarni qabul qilishni rad etish uchun kamida ikkita asosni nazarda tutadi. Jumladan, O'zbekiston respublikasida xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijroga qaratish, xususan, oilaviy munosabatlarga oid sud qarorlari ham, 1958-yilgi Nyu York konvensiyasi asosida tan olinadi va ijroga qaratiladi.¹⁸ Masalan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksning 364-moddasiga ko'ra, Chet davlat sudlarining **fuqarolik ishlari yuzasidan** hal qiluv qarorlari, jinoyat ishlari bo'yicha chiqarilgan hukmlarining jinoyat oqibatida yetkazilgan zararining o'rnini qoplashga oid qismi, shuningdek chet davlat hakamlik sudlarining (arbitrajlarining) fuqarolik nizolari bo'yicha chiqargan hal qiluv qarorlari O'zbekiston Respublikasining fuqarolik ishlari bo'yicha sudlari tomonidan tan olinishi hamda **ijroga** qaratilishi belgilangan.¹⁹ O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi qonunning 6-moddasida Chet el sudlari va arbitrajleri qarorlarini ijro etish O'zbekiston Respublikasi sudi tomonidan chet el sudining yoki arbitrajining qarori asosida berilgan ijro varaqasida ijro etilishi belgilangan.²⁰ O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi esa, xorijiy sud qarorlarini tan olishda reciprocitet tamoyiliga tayanadi, ya'ni qaror tan olinishi uchun ikkinchi davlat tomonidan ham O'zbekiston sud qarorlari tan olinishi talab qilinadi. Bu normativ hujjatlar ijro organlarining vakolatini belgilaydi, lekin xorijiy element ishtirokidagi holatlarda qo'llaniladigan maxsus protseduralar mavjud emas. Bu esa amaliyotda chalkashliklarga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, bu tizimning muammoli jihati shuki, davlat ijro byurosi xorijiy qarorlarni ijro etishda ko'plab holatlarda **qarorni tan olish to'g'risidagi sud ajrimini talab qiladi**. Biroq bu talab barcha holatlarda ham adolatli emas. Chunki ayrim davlatlar bilan O'zbekiston o'zaro tan olishni avtomatik tarzda kafolatlovchi ikki tomonlama shartnomalarga ega. Shu sababli, ayrim hollarda qaror tan olinmasdan, bevosita ijro etilishi mumkin. Biroq, sud va ijro tizimlaridagi amaliy tafovutlar tufayli bu imkoniyat kam hollarda qo'llaniladi.

Shunday qilib, xalqaro miqyosida alimentga bog'liq qarorlarni tan olish va ijroga oid munosabatlarga bog'liq konvensiyaning qamrov tor doirani qamrab olgan bo'lib, konvensiyaga barcha davlatlar qo'shilmagan. Masalan, Markaziy Osiyo mamlakatlarining aksariyati, shu jumladan O'zbekiston, hali ushbu hujjatga a'zo emas.

¹⁸ United Nations Convention on the Recognition and Enforcement of Foreign Arbitral Awards (New York, 10 June 1958) <https://www.newyorkconvention.org/english>.

¹⁹ O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. <https://lex.uz/ru/docs/-3517337#-3525302>.

²⁰ "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi qonunni. <https://lex.uz/mact/-26477>.

Bu esa huquqiy tartibotning barqarorligini ta'minlashda muayyan cheklovlarni yuzaga keltiradi. Huquqshunoslar **G. Biukovic**²¹ va **R. Michaels fikricha**²², agar davlatlar xalqaro shartnomalarda qatnashmasa, bu ularga nisbatan xalqaro hamkorlik samaradorligini pasaytiradi va ularni ko'proq ichki normativ aktlarga bog'liq holda harakat qilishga majbur etadi.

Ularning bu borada pozitsiyasi:

Gordana Biukovic	Ralf Michaels
<i>Global yondashuvga ehtiyoj bor, aliment va oilaviy qarorlar uchun soddalashtirilgan tizim lozim</i>	<i>Tan olishda xalqaro adolat va javobgarlikning huquqlari muvozanatda saqlanishi zarur</i>
<i>Formal protseduralardan ko'ra, real adolatga urg'u berish kerak</i>	<i>Comity va public policy tamoyillarining moslashuvchan talqini zarur</i>
<i>Xorijiy qarorlar tan olinishini osonlashtirish orqali aliment oluvchilarning manfaatini himoya qilishni kuchaytirish kerak</i>	<i>Hamma qarorlarni avtomatik tan olish xavfli: sifat nazorati va minimal protsessual kafolatlar zarur</i>

Sud qarorlarini tan olish va ijro etishning xalqaro va milliy mexanizmlari o'zaro integratsiyalashuvi nafaqat huquqiy, balki siyosiy va ijtimoiy muammo. Global huquqiy makonda harakat qilayotgan shaxslar uchun huquqiy barqarorlik, oldindan bilish mumkinligi (legal certainty), va tan olish kafolatlari asosiy himoya vositalaridir.

XULOSA

Xorijiy alimentlar to'g'risidagi sud qarorlarini tan olish va ijro etish ko'p qirrali huquqiy va amaliy muammolar bilan to'raligicha qolmoqda. Bularni hal qilish qonunchilik innovatsiyalari, xalqaro shartnomalar ishtiroki, protsessual islohotlar va salohiyatni oshirishning kombinatsiyasini talab qiladi. Kelajakdagi ishlanmalar shartnoma ishtirokini kengaytirishga, protsessual samaradorlik uchun texnologiyadan foydalanishga, sud va amaliyotchilar ta'limini rivojlantirishga qaratilishi kerak. Gaaga Konvensiyasi qarorlarni tan olish jarayonida soddalashtirilgan isbotlash yukini, tezkor yuritish muddatlarini va qarorlarning avtomatik tan olinishini belgilaydi. Bu esa, avvalgi ikki tomonlama bitimlarga asoslangan, ko'p hollarda siyosiy va diplomatik muammolarga olib keluvchi tartiblarga nisbatan ancha ustunlikka olib kelgan. Shunday bo'lsada, amaliyotda yuqorida keltirilgan ko'plab muammolar mavjud. Buning uchun quyidagi takliflar keltiramiz. **Birinchi navbatda**, 2007-yilgi aliment, 1980-yilgi bolaning noqonuniy olib chiqilishi, va 1993-yilgi Farzandlikka olish bo'yicha konvensiya qamrovni kengaytirish lozim. Bu fuqarolarga xalqaro huquqiy himoya beradi. **Ikkinchidan**, Ijro tizimini xalqaro platformasini iSupport tizimi, interpol va

²¹ Biukovic, G. (2011). Recognition and Enforcement of Foreign Judgments: Is There a Need for Harmonization? <https://open.library.ubc.ca/cIRcle/collections/ubctheses/24/items/1.0072108>.

²² Michaels, R. (2017). Recognition and Enforcement of Foreign Judgments. In Encyclopedia of Private International Law. <https://www.elgaronline.com/view/nlm-book/9781782547228/b9781782547228-110.xml>.

davlatlararo ijro xizmatlari bilan aloqani yo'lga qo'yish lozimi. **Uchinchi**, O'zbekiston sharoitida xorijdan keladigan hujjatlar uchun avtomatik tarjima, apostil, qonuniylashtirish tizimini e-konsullik asosida yuritish lozim.

REFERENCES:

1. Beaumont, P., & Holliday, J. (2016). Recent developments on the Hague Convention 2007 on the International Recovery of Child Support. *Journal of Private International Law*, 12(3), 700p;
2. Kholikova, G. (2023). Chet el elementi bilan murakkablashgan aliment munosabatlari tushunchasi va kollizion masalalari. *Journal of Law Research*, 6(2), 148–154. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss2/S-pp148-154>;
3. Федосеева, Г.Ю. (2007). *Брачно-семейные отношения как объект международного частного права Российской Федерации: автореф. дис. ... д-ра юрид. наук*. Москва;
4. Гирфанова, Д.И. (2013). Субъекты алиментных обязательств в международном частном праве. *Вестник экономики, права и социологии*, (4);
5. Abduraxmonova, X.B. (n.d.). *Xalqaro xususiy huquqda ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarning tartibga solinishi*. Yuridik fan doktori (DSc) dissertatsiyasi. Toshkent: 208 b.
6. Silberman, L. (2008). The recognition and enforcement of foreign judgments in the United States. *Recueil des cours*, 326, 233–392;
7. Boondech, P. (2023). Recognition and Enforcement of Foreign Court Judgments on Maintenance and Alimony. *Thai Legal Studies*. <https://so01.tci-thaijo.org/index.php/tls/article/view/257896/171383>;
8. Convention of 23 November 2007 on the International Recovery of Child Support and Other Forms of Family Maintenance. <https://www.hcch.net/en/instruments/conventions/full-text/?cid=131>;
9. Kuchieva, Y.A. (n.d.). Признание и исполнение иностранных судебных решений по взысканию алиментов <https://cyberleninka.ru/article/n/priznanie-i-ispolnenie-inostrannyh-sudebnyh-resheniy-po-vzyskaniyu-alimentov>;
10. Beaumont, P., & Walker, L. (2017). EU Maintenance Regulation: jurisdiction, applicable law, and recognition and enforcement. *Journal of Private International Law*, 13(2), 365–395;
11. Gaudreault-DesBiens, J.-F. (2019). The challenges of enforcing international maintenance obligations: Between harmonization and sovereignty. *Canadian Journal of Family Law*, 32(2), 229–261;

- 12.Mondaq. (2025). Enforcement of Foreign Judgments Comparative Guide – Turkey.<https://www.mondaq.com/turkey/litigation-mediation-arbitration/1352912/enforcement-of-foreign-judgments-comparative-guide>;
- 13.European Parliament and Council. (2009). Council Regulation (EC) No 4/2009 of 18 December 2008 on jurisdiction, applicable law, recognition and enforcement of decisions and cooperation in matters relating to maintenance obligations. *Official Journal of the European Union*. <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX%3A32009R0004>;
- 14.Минская конвенция “О правовой помощи и правовых отношениях по гражданским, семейным и уголовным делам”. <https://lex.uz/docs/2741652>;
- 15.United Nations Convention on the Recognition and Enforcement of Foreign Arbitral Awards (New York, 10 June 1958). <https://www.newyorkconvention.org/english>;
- 16.O‘zbekiston Respublikasi *Fuqarolik protsessual kodeksi*. <https://lex.uz/ru/docs/-3517337#-3525302>;
- 17.O‘zbekiston Respublikasi. “*Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida*”gi qonun. <https://lex.uz/mact/-26477>;
- 18.Biukovic, G. (2011). *Recognition and Enforcement of Foreign Judgments: Is There a Need for Harmonization?* <https://open.library.ubc.ca/cIRcle/collections/ubctheses/24/items/1.0072108>;
- 19.Michaels, R. (2017). Recognition and Enforcement of Foreign Judgments. In *Encyclopedia of Private International Law*. <https://www.elgaronline.com/view/nlm-book/9781782547228/b9781782547228-110.xml>